

## KUROPATKIN ESDALIKLARI

**Niyazov Nurali Rustamovich**

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Rus harbiy qo'mondoni va davlat arbobi Aleksey Nikolaevich Kuropatkinning esdaliklari haqida fikr yuritilib, Kuropatkin tomonidan Chor Rossiyasining O'rta Osiyoga qilgan yurishlari sabablari haqida bildirgan fikr mulohazalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Turkiston, Turon, Movarounnahr, Buxoro amirligi, Xiva, xonligi, Qo'qon xonligi, O'rta Osiyo, Chor Rossiyasi, Pyotr I, Bekovich-Cherkasskiy.

Ma'lumki, Vatanimiz boy qadimiy tarixga ega. Turon, Turkiston, Movarounnahr nomlari bilan shuhrat topgan bu mamlakatning va o'z mehnati bilan uni obod etgan o'zbek xalqining o'tmishi g'oyat qiziqarli va ibratlidir.

Uch ming yillik davlatchilik tarixiga ega bo'lgan yurtda yashagan ajdodlarimiz ne-ne sinovlardan sabr-matonat bilan o'tib kelgani, o'z erki, ozodlik uchun jonini fido qilgani hech kimga sir emas.

Ma'lumki, XIX asrning 40-yillaridan boshlab O'rta Osiyo yerlariga ochiqdan ochiq bostirib kirgan, keyinchalik uni bosib olgan Chor Rossiyasining bosqinchilik yurishlari to'g'risida ko'plab asarlar yozilgan. Hatto bu yurishlarda qatnashib, xalqimizni qon qaqshatgan rus harbiy qo'mondonlari ham bu mavzuda ham qalam tebratganlar.

Shular orasida rus harbiy qo'mondoni, Turkiston general-gubernatorligining so'nggi gubernatori Aleksey Nikolaevich Kuropatkin (1848-1925) ning 1899 yilda nashr qilingan "Zavoevanie Turkmenii" ("Turkman elining bo'ysundirilishi") nomli asarida ham Chor Rossiyasi tomonidan O'rta Osiyo xonliklarining bosib olinishi haqida muhim ma'lumotlar uchraydi. Chunki u Chor Rossiyasi tomonidan Buxoro

amirligi hamda Qo‘qon xonligiga qarshi olib borilgan yurishlarda ishtirok etgan. Ammo o‘z esdaliklarida Chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosatining asl mohiyatini yashirishga va ba‘zi hollarda hatto oqlashga harakat qilgan. Shunday bo‘lsa-da, ikki qismdan iborat esdaliklarning ilmiy ahamiyati katta bo‘lib, uning birinchi qismida, Chor Rossiyasi tomonidan O‘rta Osiyo xonliklariga qarshi olib borilgan harbiy harakatlar hamda xonliklarning asoratga solinish tafsilotlari bayon qilingan.

Asarning boshida Rossiyaning Sharqqa qarab yurishi, mo‘g‘ullar hukmronligi barham topgach, ya‘ni Iann III tomonidan boshlanganligini ta‘kidlab o‘tadi. Shundan so‘ng, 1552 yilda Ioann IV tomonidan Qozon, 1554 yilda esa Astraxan xonligini, Yermak tomonidan Sibir bosib olinganligi ayib o‘tiladi. Shuningdek, Ural kazaklari Ural daryosi bo‘ylarida (Yoyiqda) o‘rnashib olganliklari, 1587 yilda Tobolsk, 1661 yilda Irkutsk, 1650 yilda Amurdagi Albazin olinganligi ta‘kidlab o‘tiladi. Lekin shunga qaramay Kurpatkin, Pyotr I haqida gapirganda, uning nima sababdan Xivaga Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi ekspeditsiya yuborganligini va bundan ko‘zlangan asl maqsad haqida to‘liq ma‘lumot bermaydi. U shunchaki bu to‘g‘rida qisqacha to‘xtalib, uzuq-yuluq ma‘lumotlar berib o‘tadi xolos. Uning yozishicha, Pyotr I O‘rta Osiyoning o‘troq aholisi bilan savdo munosabatlarini yaxshi yo‘lga qo‘yish, qolaversa, ko‘chmanchi xalqlarning savdo karvonlariga qiladigan hujumlariga barham berish hamda O‘rta Osiyoning cho‘lli hududlarida tinchlikni o‘rnatish maqsadida Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi qo‘shinni Xivaga, Sibirdan yo‘lga chiqqan Buxgolsni Yuqori Irtishga keyinchalik Yorkentga jo‘natgan ekan. Kuropatkin, Buxgols boshchiligidagi ekspeditsiya O‘rta Irtishni bosib olib Omsk shahriga asos solinganligini, Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi qo‘shinlar esa qilichdan o‘tkazilganligi haqida ma‘lumotlar berib o‘tadi. Lekin, Pyotr I ning maqsadi boshqa edi. 1714 yilda Pyotr I Bekovich-Cherkasskiy boshchiligida Xivaga qarshi harbiy yurish uyushtirish haqida farmon chiqargan. Hukumat senati Pyotr I farmoni asosida Bekovich-Cherkasskiyga 6240 kishidan iborat qo‘shin birlashtirish haqida ko‘rsatma bergan. Shuningdek, Pyotr I Bekovich-Cherkasskiyga 13 banddan

iborat topshiriqlarni belgilab berib, unga ko'ra u Volga-Kaspiy yo'li orqali Xiva tomon yurish qilib, Amudaryo qirg'og'ida harbiy qal'a qurishi, Amudaryoni Kaspiy dengizi tomon burishi va Xiva xonligini bosib olishi lozim edi.

Shuningdek, Kuropatkin ushbu asarida 1730 yilda qozoqlarning Kichik O'rdasi (Juz) rus davlati tobe'ligiga o'tganligi, ular hamda rus xalqining manfaatlarini ko'zlab, kichik-kichik istehkomlar qurilib, karvon yo'llarida qo'riqchi qo'shinlar otryadi tashkil qilinganligi, shunday bo'lsa-da ko'chmanchi qozoq hamda turkmanlarning hujumlari muttasil davom etganligi, bu hujumlar oqibatida har yili 200 ga yaqin rus fuqarolari asir olinib Xiva, Qo'qon va Buxoro bozorlarida qul sifatida sotilishi haqida ma'lumot bergan.

Kuropatkinning bildirishicha, Rus davlati topshirig'iga ko'ra, rus qo'shinlari dastlab O'rta Osiyo cho'llarining chekka hududlarida, keyinchalik ko'chmanchi aholi istiqomat qiladigan manzillarda o'z qarorgohlariga asos solishgan. Uning yozishicha, 1833 yilda Kaspiy dengizi bo'yida Novo-Aleksandrovsk qal'asi qurilgan. Graf Perovskiy Orenburg yo'nalishi bo'yicha 4 ta istehkom barpo qilgan. Kuropatkinning so'zlariga ko'ra, bu kabi ko'rilgan chora-tadbirlar ham "natija" bermagach, ya'ni ko'chmanchilarning hujumlari to'xtamagach, Xiva xonligiga ekspeditsiya uyushtirishga qaror qilingan emish. Aslida Chor hukumati uchun ko'chmanchilarning hujumi, karvon yo'llaridagi tartibsizliklar shunchaki bir bahona bo'lib, ular oldindan tuzib qo'yilgan puxta reja asosida O'rta Osiyo xonliklari chegaralariga tobora yaqinlashib, yozuv niyatlarini amalga oshirish uchun shay bo'lib turganlar.

Xulosa qilib aytganda, Kuropatkinning esdaliklarida keltirilgan ma'lumotlar Vatanimiz tarixini o'rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Hamid Ziyoev. Tarix-o'tmish va kelajak ko'zgusi. T.2000
2. Hamid Ziyoev. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. T.1998

3. Murodov, S. A. (2022). Relationship between the universe and man in the works of Fariduddin Attor. In *International conference: problems and scientific solutions* (Vol. 1, No. 6, pp. 35-41).

4. Мурадов, С. А. Современные методы философии и их значение в развитии мышления человека. *Актуальные исследования*, 51.

5. Муродов, С. А. (2009). Ибн Сино, Аттор ва Навоий асарларида кушлар тимсоли. *Имом ал-Бухорий сабоқлари», Маънавий-маърифий, илмий-адабий журнал. Тошкент*, 273-276.

6. Мурадов, С. А. кизи Касимова, ФФ (2022, December). ФИЛОСОФИЯ ДИЗАЙНА: ОСОБЕННОСТИ И СУЩНОСТЬ. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS* (Vol. 1, No. 7, pp. 51-59).

7. Санжар, М. (2020). Взгляды Фаридуддина Атгара на бытие. *Международный журнал прикладных исследований. ИДЖАР*, 6(6), 34-36.

8. МУРАДОВ, С. А. СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ФАРИДУДДИНА АТТОРА. *МОЛОДОЙ УЧЕНЫЙ Учредители: ООО "Издательство Молодой ученый*, 51, 529-531.

9. Aslonovich, M. S., & Zaynura, M. (2023, June). NATIONAL DRESSES OF CENTRAL ASIA: AS A COMPONENT OF" CULTURE OF DESIGN". In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 15, pp. 170-177).

10. Aslonovich, M. S., & Zaynura, M. (2023, June). NATIONAL DRESSES OF CENTRAL ASIA: AS A COMPONENT OF" CULTURE OF DESIGN". In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 15, pp. 170-177).

11. Мурадов, С. А. (2023, June). ФАРИДУДДИН АТТОР-ВЕЛИКИЙ ШЕЙХ ВОСТОКА. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 15, pp. 149-160).

12. Muradov, S. A. (2023). THE MAIN IDEAS OF THE FOUNDER OF THE GERMAN SCHOOL OF PHILOSOPHY. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 588-594.
13. Sanjar, M. One of the Factors of Purity of the Heart is Futuwat. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 98-101.
14. Sanjar, M. (2020). The views of Fariduddin Attar on being. *International journal of applied research. IJAR*, 6(6), 34-36.
15. Jahongir, S. (2020). Philosophical views of Umar life. *Academicia. An International Multidisciplinary Research Journal.–India*, 10(4), 360-364.
16. Shodiev, J. J. (2020). Interpretation of moral facts in the opinions of Umar Khayyam. *International engineering journal for research & development.-India*, 5(3), 143-148.
17. Шодиев, Ж. Ж. Interpretation of the image of may in the ruba of Umar Khayyam. *Monografia pokonferencyjna science, research, development*, 33, 2020-30.
18. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайём фалсафий қарашларида инсон тақдири ва эркин ирода масаласи. *Наманган давлат университети Илмий ахборотномаси*, 2, 197-204.
19. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайёмнинг асосий асарлари ва рубойларининг тузилиши, мазмуни ва таҳлили. *Илм Сарчашмалари.-Урганч*, 10, 44-47.
20. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайём рубойларининг талқин ва тавсифи. *Наманган давлат университети Илмий ахборотномаси*, 9, 206-210.
21. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайёмнинг ижтимоий-ахлоқий қарашлари. *Фалсафа ва ҳуқуқ.–Тошкент*, 3, 107-110.
22. Shodiev, J. (2021). The problem of knowledge in the philosophical views of Umar Khayyam. *Imam al-Bukhari IBS Journal*, 2.
23. Шодиев, Ж. (2022). Илк уйғониш даврида–комил инсонни шакллантириш ватарбиялашда тасаввуф таълимотининг ўрни. *Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2022-yil\_4-сон*, 229.

24. Шодиев, Ж. Ж. Мамлакатимизда инсон қадрини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. *Қарду хабарлари. Илмий-назарий, услубий журнал. Махсус сон (Ижтимоий фанлар)*.
25. Shodiev, J. J. (2020). INTERPRETATION AND DESCRIPTION OF UMAR KHAYYAM RUBAYA. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(9), 206-211.
26. Jurakulovich, S. J. (2022). AGAINST IGNORANCE-FIGHTING WITH ENLIGHTENMENT THE MAIN CRITERIA IN IMPROVING HUMAN VALUE. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(10), 1160-1164.
27. Jurakulovich, S. J. (2022). ATTITUDE TO HUMAN DIGNITY IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS DYNASTY. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(5), 43-47.
28. Shodiyev, J. (2021). JAMIYATDAGI MEHNAT MUNOSABATLARI SHAROITIDA MA'NAVIY SALOHİYAT. *Журнал истории и общества*, (2)
29. SHODIEV, J. (2021). SOCIO-POLITICAL LIFE AND THE DEVELOPMENT OF SCIENCE IN THE PERIOD OF UMAR KHAYYAM. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
30. Shodiyev, J. (2021). O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY-SIYOSIY KOMMUNIKATSIYA RIVOJLANISHIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SIYOSATI. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 409-416.
31. Shodiyev, J. J. (2020). U THE QUESTION OF HUMAN DESTINY AND FREE IN THE PHILOSOPHICAL VIEWS OF OMAR KHAYYAM. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(2), 197-202.
32. Shodiev Jahongir Jurakulovich. Interpretation of moral facts in the opinions of Umar Khayyam. *International Engineering Journal For Research & Development* 2020/4/16.

33. Jurakulovich, S. J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(10), 1160-1164.
34. Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich. Inson qadri va uning huquqlari eng oliy qadriyat: tarixiy-huquqiy meros. *Ilm sarchashmalari/ Urganch* – 3.2023. 19-21.
35. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF SCIENTIFIC THINKING AND MENTAL DEVELOPMENT IN IMPROVING HUMAN DEVELOPMENT AND VALUE. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(9), 251-261.
36. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF THE NATIONAL IDEA IN INCREASE OF HUMAN VALUES. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 616-625.
37. Jurakulovich, S. J. (2023). PHILOSOPHICAL VIEWS OF SAGES ON HUMAN VALUES AND GLORIFYING HIM. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 2(16), 229-238.
38. Шодиев, Ж. Ж. (2023, June). ЗНАЧЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В СОЗДАНИИ ФУНДАМЕНТА ТРЕТЬЕГО ВОЗРОЖДЕНИЯ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В УКРЕПЛЕНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 15, pp. 124-130).
39. JJ Shodiev. A STEP TOWARDS HUMAN DIGNITY. *GOLDEN BRAIN* 1 (24), 59-67.
40. Hamid Ziyoev. *Tarixning ochilmagan sahifalari*. T.2003
41. Google.ru/ Aleksey Kuropatkin. *Zavoevanie Turkmenii. (Ocherk voennykh deystviy v Sredney Azii s 1839 po 1876-y god*